

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makonining ijtimoiy-siyosiy kontseptual asoslari 235

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-siyosiy omillari 240

B.X.Tolipov

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati
asosida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari 245

F.A.Mirzayeva

Zamonaviy tariqatchilikdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimida
"Maktubot" asarining ahamiyati 249

I.M.Arzimatova

Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari 254

I.A.Asatulloev

Siyosiy ta'sirni amalga oshirish vositalari va mexanizmlari 260

O.M.Karimov

Majburiy mehnatga qarshi kurashda xorij tajribasi: muammo va yechimlar 266

Q.Sulaymonov

Siyosiy madaniyatning milliy-madaniy negizlari va o'ziga xos xususiyatlari 269

A.A.So'fiev

Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirishning ijtimoiy zarurati 273

M.R.Sodiqova

O'zbekiston ipakchilik sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalari va uning iqtisodiy
ahamiyati (2000-2021-yillar) 278

S.A.Soxibov

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston va global kontekstda oqibatlar tahlili 282

Q.A.Pulatov

Sotsial transformatsiya sifatida tizimli jarayon: falsafiy va tarmoqlararo tahlil 286

D.E.Normatova

Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar 290

O.M.O'sarkulov

O'zbekistondagi koreys diasporasi milliy identikligining asosiy ko'rinishlari 294

G.I.Hashimova

Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy,
siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida 299

I.A.Rakhimov

Problems with performance indicators (KPI) set by mahalla chairmen
when evaluating the performance of the "Mahalla seven" 304

S.P.Tojiboyev

Davlat boshqaruvida korrupsiogen xatti-harakatlarning psixosotsial ildizlari 308

TARIX**F.M.Rahmonberdiyev**

XX asr 20 – 50-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining B.Ahmedov hayotida aks etishi 313

F.M.Rahmonberdiyev

Tarixshunoslikda akademik Bo'riboy Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatini
davrlashtirish masalalari: yangi talqinlar 321

E.A.Botirov

Bir olimning izlari: L.M. Landa shaxsiy fondi sahifalariga nigo 328

O.A.Radjabov

Tojikiston temiryo'l tashkiloti va uning faoliyati tarixi 332

S.B.Mamataliyeva

Turkistonning islomgacha bo'lgan davrdagi shishalari tarixi 336

S.I.Yoqubjonov

O'zbekiston hunarmandchiligi: rivojlanishi va xalqaro maydonda bugungi o'rni 342

D.A.Qosimov

Turkiston o'lkasida Farg'ona viloyati pochta-telegraf tizimining tarixiy



UO'K: 338.48:339.9(575.1)

O'ZBEKISTON IPAKCHILIK SANOATIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI VA UNING IQTISODIY AHAMIYATI (2000-2021-YILLAR)**МЕЖДУНАРОДНЫЕ СВЯЗИ СОТРУДНИЧЕСТВА В ШЕЛКОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА И ИХ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ (2000–2021 ГОДЫ)****INTERNATIONAL COOPERATION IN UZBEKISTAN'S SILK INDUSTRY AND ITS ECONOMIC SIGNIFICANCE (2000–2021)****Sodiqova Mahbubaxon Raxmonaliyevna** 

Farg'ona davlat universiteti falsafa va milliy g'oya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada 2000-2021-yillar davomida O'zbekiston ipakchilik sanoatida shakllangan xalqaro hamkorlik aloqalari va ularning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan institutsional islohotlar, klaster tizimining joriy etilishi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan davlat siyosati xalqaro hamkorlik uchun mustahkam asos yaratdi. Xitoy va Ozarbayjon bilan olib borilgan strategik sheriklik natijasida ishlab chiqarish hajmi oshdi, eksport salohiyati kengaydi va qishloq joylarda bandlik darajasi yuqori bo'ldi. Maqolada xalqaro tajribani o'zlashtirish, texnologik yangilanish va mintaqaviy integratsiya orqali ipakchilik tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari asoslab berilgan.

Аннотация

В статье анализируется развитие международного сотрудничества в шелковой промышленности Узбекистана в период 2000–2021 годов и его экономическое значение. Особое внимание уделено институциональным реформам, внедрению кластерной системы и привлечению иностранных инвестиций после 2017 года. Стратегическое партнерство с такими странами, как Китай и Азербайджан, способствовало увеличению объемов производства, расширению экспортного потенциала и росту занятости в сельских районах. В статье обоснована необходимость внедрения международного опыта, технологических инноваций и углубления региональной интеграции для повышения конкурентоспособности отрасли.

Abstract

This article explores the development of international cooperation in Uzbekistan's silk industry from 2000 to 2021 and evaluates its economic significance. Special attention is given to institutional reforms, the introduction of the cluster system, and the attraction of foreign investment after 2017. Strategic partnerships with countries such as China and Azerbaijan have contributed to increased production, expanded export potential, and higher employment in rural areas. The study justifies the importance of adopting international experience, introducing technological innovations, and enhancing regional integration to improve the competitiveness of the silk sector.

Kalit so'zlar: Ipakchilik, iqtisodiy hayot, ijtimoiy ta'sir, eksport, qishloq xo'jaligi, ish o'rinlari, sanoat rivojlanishi, texnologik yangilanishlar, davlat siyosati, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, xorijiy investitsiya, ipak mahsulotlari, iqtisodiy salohiyat.

Ключевые слова: производство шелка, экономическая жизнь, социальное воздействие, экспорт, сельское хозяйство, рабочие места, промышленное развитие, технологические инновации, государственная политика, экономический рост, социально-экономический анализ, иностранные инвестиции, шелковые изделия, экономический потенциал.

Key words: silk production, economic life, social impact, export, agriculture, jobs, industrial development, technological innovation, public policy, economic growth, socio-economic analysis, foreign investment, silk products, economic potential.

KIRISH

Ipakchilik O'zbekiston iqtisodiyotida agrar sohaning muhim va strategik ahamiyatga ega yo'nalishi bo'lib, uzoq tarixga borib taqaladi. 2000-2021-yillar oralig'ida soha markazlashgan boshqaruvdan klaster tizimiga o'tish, ishlab chiqarishni liberallashtirish va global bozorga integratsiyalashuv kabi murakkab jarayonlarni boshdan kechirdi [1]. Bu o'zgarishlarning asosiy maqsadi xom ashyo yetkazib beruvchi mamlakatdan qo'shilgan qiymati (ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonida muayyan bir firma, korxonada yangidan yaratilgan, bevosita o'stirilgan,

SIYOSAT

mahsulotning oldingi qiymatiga qo'shilgan qiymat deyiladi) yuqori tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchiga aylanish edi.

Bu maqsadga erishishda xalqaro hamkorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Tadqiqotning maqsadi — aynan mana shu xalqaro aloqalarning asosiy yo'nalishlarini, ya'ni texnik yordam, investitsiya loyihalari va mintaqaviy hamkorlikni tahlil qilish hamda ularning O'zbekiston ipakchiligidagi iqtisodiy samaradorligiga ta'sirini baholashdan iborat. Tadqiqot Prezident qarorlari [2] bilan mustahkamlangan islohotlarning amaliy natijalarini statistik va sifatli jihatdan asoslaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ipakchilik sanoatida xalqaro hamkorlik ko'plab yo'nalishlarda amalga oshirildi: texnologiyalar almashinuvi, xom ashyo etkazib berish, bozorlarni o'rganish va yangi bozorlarni zabt etish, shuningdek, investitsiyalarni jalb qilish. Xitoy, Hindiston, Vyetnam kabi yirik ishlab chiqaruvchi davlatlar bilan hamkorlik O'zbekistonga zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari va ilg'or texnologiyalarni joriy qilish imkonini yaratdi [3].

Ipakchilik sanoatining rivojlanish tendensiyalari va muammolari bir qator chet el olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Xitoy Milliy Ipak Muzeyi direktori Zhao Feng tadqiqotlari ipakning san'at va madaniyatdagi o'rnini o'rganishga qaratilgan [4]. Young Yang Chung Janubiy Koreyalik to'quvchilik tarixchisi bo'lib, Xitoy, Yaponiya va Koreya madaniyatlaridagi to'quvchilik va tikuvchilik san'atini o'rgandi [5]. U o'zining ilmiy ishlari orqali Sharqiy Osiyo matolarining tarixiy rivojlanishini tahlil qildi. Buyuk Britaniyalik tarixchi va arxeolog Susan Vaytfild ipak yo'li bo'ylab madaniy almashuvlarni o'rgandi. U ipakchilik bo'yicha 1993–2017-yillarda Markaziy Osiyo qo'lyozmalarini tadqiq etdi [6]. Bundan tashqari Hindistonning Markaziy Janubiy Bihar Universiteti (CUSB) va Yaponiyaning Teikyo Universiteti o'rtasida ipak qurti tadqiqot laboratoriyasini tashkil etish rejalashtirildi [7]. Bu loyiha ipak sanoatini rivojlantirishga va ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirishga qaratildi. O'zbek tadqiqotchilaridan A.Raximov o'z ilmiy tadqiqotida ipak iplarining xossalari yaxshilash, ipak chiqindilaridan samarali foydalanish, ipakdan olinayotgan mahsulotlarning iste'mol xususiyatlarini yanada oshirish, mustahkamligi yuqori bo'lgan ipak iplarini tayyorlash texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratdi [8].

NATIJA VA MUHOKAMA

Dunyo miqyosida 60 dan ortiq mamlakatda pilla yetishtiriladi, ulardan eng yirik ishlab chiqaruvchilar Xitoy, Hindiston, Vyetnam va Janubiy Koreya hisoblanadi. Ipak yetishtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati qishloq joylaridagi aholi bandligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

2017-yildan boshlab O'zbekistonning viloyatlar miqyosidagi ipakchilik sanoati rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, Samarqand, Qashqadaryo, Farg'ona va Namangan viloyatlarida ishlab chiqarish hajmi va sifat ko'rsatkichlari yaxshilandi, bu esa mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda [8].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2000-2021 yillar davomida pilla ishlab chiqarish hajmi 45% ga o'sdi, eksport hajmi esa 60% ga ko'paydi [9]. Bundan tashqari, ipak sanoati korxonalarining soliq va bojxona yukini engillashtirish, tashish xarajatlarini kamaytirish, soha uchun kredit shartlarini yaxshilash hamda ipak qurti ishchilari va uy sharoitida ipak qurti pillasini etishtiruvchilar uchun ijtimoiy rag'batlantirishlar joriy etildi. Jumladan, ipak sanoatida quyidagi imtiyoz va afzalliklarga ega bo'ldi:

- Ipak qurti etishtiruvchilar daromad solig'idan ozod qilindi, ularning mavsum davomida qilgan ishlari yillik ish staji sifatida hisoblandi;

- Ipak qurti etishtiruvchi korxonalar ijtimoiy soliqdan (serikulturistlarga to'lanadigan mablag'lar bo'yicha), er solig'i, mulk solig'i va daromad solig'idan (eksportdan tushgan daromad bo'yicha) ozod qilindi.

- Davlat sanoat korxonalarining quyidagi xarajatlarini ham qoplab berdi:

- Ipak mahsulotlarini AQSh, Turkiya va Yevropa Ittifoqi kabi mamlakatlarga havo va temir yo'li orqali tashish xarajatlarining 50% gacha;

- Tut plantatsiyalarida tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish uchun har 1 gektar uchun 8 million so'mgacha kompensatsiya;

- 35 gektardan katta tut plantatsiyalarini sug'orish uchun quduq qazish xarajatlariga 120 million so'mgacha kompensatsiya;

- Qo'l bilan to'qish uchun gilam va ipak to'qish dastgohlarini sotib olishga har bir dastgoh uchun 2,7 million so'm kompensatsiya berilishi rejalashtirildi [9].

Iqtisodiy ko'rsatkichlar: Tadqiqotlar islohotlar natijasida ipak sanoatining iqtisodiy salohiyati va pilla ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari yaxshilanganini ko'rsatdi. Shuningdek, xom ashyoni saqlash va pillaning ipakchanlik sifatini oshirish muhim texnik muammolar sifatida qolmoqdi.

Qiyosiy-tizimli tahlillar shuni ko'rsatdiki; O'zbekistondagi klaster tizimi tajribasi, xalqaro amaliyotda sinalgan (Xitoy, Hindiston, Koreya, Yaponiya kabi yetakchi davlatlarning) [10] boshqaruv va ishlab chiqarish modellari bilan taqqoslandi, bu esa tarmoqda innovatsion boshqaruv [10] zaruriyatini asoslash imkonini berdi. Xususan, Koreya va Yaponiyaning innovatsiya va texnologik rivojlanishdagi ilg'or tajribasi, ipakchilik klasterlarida yuqori samaradorlik va qiymat zanjirini kengaytirishga erishish uchun muhim yo'nalish bo'lib xizmat qildi.

Bir qator tizimli muammolar sabab O'zbekistonning Yevropa va AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarning bozoriga kirib borishida, o'zining ipak mahsulotlarini sotishida qiyinchiliklarga duch keldi. Rivojlangan mamlakatlar ipak mahsulotlari importi, asosan, Xitoy va Hindiston mamlakatlardan amalga oshirilayotganligi bois, O'zbekistonning eng daromadli mamlakatlarga ipakli mahsulotlar eksportida ulushi pastligicha qolmoqda[11]. 2024-yilda Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi Xalqaro Ipak Ittifoqiga tashrif buyurdi[12]. Bu anjumanda ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari, O'zbekistondagi 10 dan ortiq ipakchilik korxonalari vakillari, Xitoyning "Cathaya Group" kompaniyasi mutaxassislari ishtirok etdi, xitoylik ipak etishtiruvchilar va Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi bilan yaqin aloqada bo'lish, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, sog'lom va barqaror rivojlanish borasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama etildi[12]. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida pilla ishlab chiqarish va eksport hajmi dinamikasi tahlil qilinib, xalqaro hamkorlikning iqtisodiy samaradorligi baholandi[9].

O'zbekistonda pilla ishlab chiqarish hajmi (2000–2021)[9]

	Yil	Pilla ishlab chiqarish (tonna)	Eksport hajmi (mln \$)	Ish o'rinlari (ming)
1	2000	12 000	3.1	354
2	2010	18 000	6.4	55
3	2017	23 500	12.2	85
4	2021	28 000	19.3	101

Ipakchilik sanoatida 2021-yilda 862 ming 500 nafar fuqaroning bandligi ta'minlanib, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, pilla etishtirish hajmini ortishi va yangi investitsiya loyihalarini ishga tushirilishi natijasida sohada faoliyat olib boradigan ishchilar sonini 2026-yilda 1 mln. 322 ming nafarga etkazish prognoz qilingan. Xususan, 2022-yil uchun bu ko'rsatkich 1 mln. 130 ming nafarni, 2023-yilda 1 mln. 175 ming nafarni, 2024-yilda 1 mln. 222 ming nafarni va 2025-yilda 1 mln. 271 ming nafarni tashkil etadi[11].

XULOSA

2000-2021 yillar oralig'ida O'zbekiston ipakchilik sanoatidagi xalqaro hamkorlik aloqalari tarmoqni inqirozdan olib chiqish va uni modernizatsiya qilishda hal qiluvchi omil bo'ldi. Davlat tomonidan institutsional o'zgarishlar va imtiyozlar yaratilishi natijasida: Klaster tizimi keng joriy qilindi va xalqaro investorlar uchun jozibador muhit yaratildi. Xitoy va Koreya, Yaponiya kabi strategik sheriklar bilan texnologik va investitsion hamkorlik mustahkamlandi. Tadqiqot O'zbekiston ipakchilik sanoatining 2000–2021 yillardagi rivojlanishida xalqaro hamkorlikning hal qiluvchi rolini ko'rsatdi. O'rganilayotgan davr mobaynida, ayniqsa 2017 yildan keyin amalga oshirilgan keng qamrovli institutsional islohotlar va klaster tizimining joriy etilishi xalqaro aloqalar uchun mustahkam zamin yaratdi. Davlat siyosatining o'zi xom ashyo etkazib beruvchi mamlakatdan qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchiga aylanishni maqsad qildi.

Ipakchilik tarmog'i qishloq joylarda bandlikni ta'minlashda muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etdi. 2021 yilda sohada 862,5 ming nafar fuqaroning bandligi ta'minlandi. Kelajakda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish natijasida bu ko'rsatkichni 2026-yilga borib 1 mln. 322 ming nafarga etkazish prognoz qilingan. Xalqaro hamkorlik O'zbekiston ipakchilik sanoatining iqtisodiy salohiyatini sezilarli darajada yaxshiladi, agrar sohaning strategik ahamiyatini mustahkamladi va qishloq xo'jaligida yuqori qo'shilgan qiymat yaratish modeliga o'tish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Isroilov R. Mamlakatimiz pillachilik tarmog'ida istiqbolli klasterlarni tashkil etish shart-sharoitlari. // Agro ilm jurnali. Maxsus son. – 2019. – B. 73-74.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi "O'zbekipaksanoat uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror.
3. Huan Wang, Ting Ting Tao (2013). Analysis of silk production provinces using principal component analysis and clustering methods. International Journal of Industrial Analysis. P 323-326. <https://www.scientific.net/book/silk-protective-clothing-and-eco-textiles/978-3-03826-219-0>
4. Zhao Feng Illustrations of Sericulture and Weaving – Chinese illustrated books on silk production, weaving and use in French collections (Hangzhou: Zhejiang guji chubanshe) 2025 (with LI Jinfang), 赵丰、李晋芳《法藏蚕织图册：生产、织造和使用》（浙江古籍出版社出版） ISBN 978-7-5540-3388-3
5. Young Yang Chung Silken Threads: A History of Embroidery in East Asia. 2005 <https://www.google.com/url>
6. Whitfield, Susan (2018). Silk, Slaves and Stupas - Material Culture of the Silk Road. University of California Press 376 pp <https://www.ucpress.edu/book/9780520281783/silk-slaves-and-stupas1>
7. CUSB likely to get silkworm research lab in collaboration wi Aug 05, 2025.
8. N.Aliyeva. Strategic Directions of Management of Innovation Activities at Silk-Producing Enterprises American Journal of Alternative Education Vol. 1, No. 10, Dec 2024. 5-9,
9. (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2022-yil ma'lumoti).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2856-sonli Qarori ("O'zbekipaksanoat" uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida) / <https://lex.uz/docs/-3149416>
11. Jumayev O. O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy jurnali. Elektron nashr. – 2023. – № 8. – B. 11-17, 426.
12. <https://www.agro.uz/ipakchilik-va-jun-sanoatini-rivojlantirish-qo-mitasi-xalqaro-ipak-ittifoqiga-tashrif-buyurdi/>